MUQIMIY IJODIDA MOLIYAVIY SIYOSAT VA SOLIQ MA'MURCHILIGI MUAMMOLARINING IJTIMOIY-IQTISODIY TASVIRI

Jumanova Shaxlo Boxodir qizi
TDIU "Bank ishi" fakulteti talabasi
Shovkatov Nodirjon Ne`matjon o'g'li
TDIU "Baholash ishi va investitsiyalar" kafedrasi
dotsenti, PhD, ilmiy rahbar
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20062504

Annotatsiya: Mazkur maqolada o'zbek adabiyoti namoyondasi Muhammad Aminxo'ja Muqimiyning «Tanobchilar» asari iqtisodiy islohotlar va fiskal siyosat nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Tadqiqotda XIX asr oxiridagi Turkiston agrar tizimidagi soliq ma'murchiligi, yer kadastri muammolari va amaldorlar korrupsiyasining iqtisodiy oqibatlari tadqiq etilgan. Asardagi badiiy obrazlar zamonaviy iqtisodiy nazariyalar — renta qidirish xulq-atvori, axborot va tranzaksiya xarajatlari bilan bog'liq holda yoritiladi. Maqola yakunida Muqimiy ijodining bugungi kundagi raqamli iqtisodiyot va soliq islohotlari davridagi dolzarbligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: fiskal siyosat, soliq ma'murchiligi, tanob, yer kadastri, korrupsiya, renta qidirish, axborot, institutsional inqiroz, agrar munosabatlar.

Abstract: This article analyzes the work of Uzbek literary figure Muhammad Aminkhodja Mukimiy "Tanobchilar" from the perspective of economic reforms and fiscal policy. The study examines the problems of tax administration, land cadaster, and the economic consequences of corruption of officials in the agrarian system of Turkestan at the end of the 19th century. The artistic images in the work are highlighted in connection with modern economic theories - rent-seeking behavior, information and transaction costs. At the end of the article, the relevance of Mukimiy's work in today's era of digital economy and tax reforms is substantiated.

Keywords: fiscal policy, tax administration, tanob, land cadastre, corruption, rent-seeking, information, institutional crisis, agrarian relations.

Аннотация: В данной статье анализируется творчество узбекского литературного деятеля Мухаммада Аминходжи Мукими «Танобчилары» с точки зрения экономических реформ и фискальной политики. В исследовании рассматриваются проблемы налогового администрирования, земельного кадастра и экономические последствия коррупции чиновников в аграрной системе Туркестана конца XIX века. Художественные образы в произведении освещаются в связи с современными экономическими теориями – рентным поведением, информационными и транзакционными издержками. В конце статьи обосновывается актуальность творчества Мукими в современную эпоху цифровой экономики и налоговых реформ.

Ключевые слова: фискальная политика, налоговое администрирование, «танобчилары», земельный кадастр, коррупция, рентное поведение, информация, институциональный кризис, аграрные отношения.

Kirish.

O'zbek adabiyoti xazinasining durdonasi hisoblangan Muhammad Aminxo'ja Muqimiy ijodi o'zining hayotiyligi va ijtimoiy-ma'naviy dolzarbligi bilan hamisha alohida mavqega ega bo'lib kelgan. Shoir yashagan davr — XIX asrning ikkinchi yarmi va XX asr tongi yurtimiz tarixida nihoyatda murakkab, ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar chigallashgan bir pallaga to'g'ri keladi. Mustamlakachilik iskanjasida qolgan Turkiston o'lkasida an'anaviy turmush tarzi va xo'jalik yuritish tartiblari o'rniga yangicha, xalq manfaatlari bilan hisoblashmaydigan boshqaruv usullari joriy etila boshladi. Bu davrda

davlat xazinasini to‘ldirishning asosiy vositasi bo‘lgan soliq tizimi va yer munosabatlari oddiy mehnatkash xalqning yelkasiga og‘ir yuk bo‘lib tushdi. Muqimiyning “Tanobchilar” hajviyasi aynan mana shu tarixiy bo‘ronlar ichidagi iqtisodiy adolatsizliklarni, amaldorlar orasidagi ta’magirlik va vijdonsizlikni fosh etuvchi eng kuchli adabiy-tahliliy asardir.

Asar mazmuni bilan chuqurroq tanishgan kishi unda nafaqat badiiy tasvir, balki o‘sha davrning moliya va soliq siyosatidagi tizimli qusurlarni ko‘radi. Shoir xalq tilida "tanob tortish" deb atalgan, aslida esa yer maydonlarini o‘lchash va shunga muvofiq ravishda soliq miqdorini belgilash jarayonidagi qing‘irliklar haqida so‘z ochadi. Yer — azaldan rizq-ro‘z manbai, dehqonning tayanchidir. Biroq tanobchilar qo‘lidagi o‘lchov arqoni adolat quroli emas, balki g‘arazgo‘ylik va zulm vositasiga aylangan edi. Muqimiy asarni boshlar ekan:

“O‘n ikki oyda keladur bir tanob,
O‘zgalara rohat-u menga azob”

deb yozganida, soliq to‘lash mas’uliyati amaldorlar uchun boylik orttirish imkoniyati, qora mehnat bilan kun ko‘rayotgan dehqon uchun esa og‘ir kulfat ekanligini ta’kidlaydi. Bu iqtisodiy jihatdan yondashilsa, soliq yukining aholi daromadiga nisbatan nomutanosibligi hamda soliq ma’murchiligidagi achchiq haqiqatdir.

Mustamlakachilik ma’murlari tomonidan joriy etilgan yangi tartib-qoidalar, xususan, 1886-yildagi yer-suv munosabatlariga doir nizomlar, qog‘ozda adolatli ko‘rinsa-da, amalda mahalliy amaldorlarning o‘z mansablarini suiiste’mol qilishlariga keng yo‘l ochib berdi. Tanobchi deb atalgan yer o‘lchovchilarning mutlaq hokimiyatga ega bo‘lishi, ularning ishini nazorat qiluvchi shaffof tizimning yo‘qligi jamiyatda "mansab vakolatini boylikka ayirboshlash" illatini keltirib chiqardi. Muqimiy asarining har bir misrasida mana shu korrupsiya zanjirning halqalari bir-bir fosh etiladi. Shoir tasvirlagan Sulton Ali Xo‘ja va Hakimjon siymolari shunchaki shaxslar emas, balki butun boshli davlat boshqaruv tizimining eskirgan bo‘g‘inlari timsolidir. Ularning qishloqqa kelishi iqtisodiy faollikni oshirishga emas, balki mavjud resurslarni adolatsiz qayta taqsimlashga qaratilgan.

Shoir amaldorlar o‘rtasidagi *"shirin kelishuv"*ni ham mahorat bilan tasvirlaydi. Ikki nafar soliq mas’ulining o‘zaro hamkorlikka kirishishi, aslida, xalqning dardi bilan qiziqish emas, balki dehqonni birgalikda moddiy jihatdan og‘ir ahvolga tushirish rejasidir. Bu jarayon iqtisodiyotda nazoratning yo‘qligi va amaldorlar orasidagi manfaatlarning birlashishi jamiyat farovonligiga qanday zarba berishini yaqqol ko‘rsatadi. Ular o‘zlarini bilimdon, nasli-nasabi ulug‘ yoki dindor qilib ko‘rsatish orqali dehqonlarda ruhan qo‘rquv va taslimiyat hissini uyg‘otadilar. Bu esa, o‘z navbatida, amaldorga bo‘lgan asossiz ehtiromning ortishiga va uning har qanday qonunbuzarligi *"taqdir"* sifatida qabul qilinishiga olib kelgan.

Maqolada Muqimiyning “Tanobchilar” asari misolida soliq ma’murchiligidagi nuqsonlar, amaldorlar xulq-atvorining jamiyat rivojiga salbiy ta’siri hamda soliq tushunchasining ijtimoiy-falsafiy jihatlari chuqur tahlil qilinadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Muhammad Aminxo‘ja Muqimiy nafaqat milliy she’riyatimizning yirik namoyandasi, balki o‘z davrining ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni o‘tkir nigoh bilan tahlil qila olgan mutafakkirdir. Shoirning “*Tanobchilar”* asari adabiyotshunoslik, tarix va iqtisodiy tafakkur chorrahasida turuvchi noyob ma’naviy meros bo‘lib, uni o‘rganishda nafaqat adabiyotshunos olimlarning, balki tarixchi va moliya tizimi tadqiqotchilarining ham ilmiy xulosalariga e’tibor qaratish lozim.

O‘tgan asrning zabardast olimi G‘ulom Karimov o‘zining Muqimiy hayoti va ijodiga bag‘ishlangan tadqiqotlarida shoirning maktabini shakllantirishdagi xizmatlarini yuksak baholagan. Olim o‘zining ilmiy izlanishlarida *“Tanobchilar”* asarini shunchaki hajviy asar emas, balki *“Turkiston xalqining iqtisodiy hayotidagi og‘riqli nuqtalarning badiiy bayoni”* deb ataydi[1]. Uning fikricha, Muqimiy asarlaridagi kulgi zamirida achchiq haqiqat va xalqning ma’muriy jihatdan chekkan dardi yotadi.

Tarixchi olim V.V. Bartold Turkiston o‘lkasining iqtisodiy tarixiga oid asarlarida XIX asr oxiridagi yer islohotlarining mohiyatini chuqur ochib bergan. Olimning qayd etishicha, chor ma’murlari tomonidan joriy etilgan 1886-yilgi *‘Nizom”* agrar munosabatlarda kutilgan natijani bermadi[2]. Chunki bu tizim

quyi bo‘g‘indagi amaldorlar — aminlar, oqsoqollar va ayniqsa, tanobchilarning mutlaq hokimiyatiga asoslangan edi. Bu tarixiy fakt Muqimiy tasvirlagan:

“Ikkalasi bo‘ldi chunon ittifoq,
Go‘yo xayol aylaki, (qilmay nifoq)”

misralarining naqadar real asosga ega ekanligini tasdiqlaydi. Tadqiqotchi olimlarimiz P. G‘ulomov va S. Olimovlar ham Muqimiy ijodidagi ijtimoiy tahlillarni yuqori baholab, shoirning *“Tanobchilar”* asari orqali davlat boshqaruvidagi yomonliklarni fosh etganini ta’kidlaydilar. Ularning fikricha, amaldorlar o‘rtasidagi “ittifoqlik” — bu yurt farovonligi yo‘lidagi birlashuv emas, balki dehqonning rizqini qiyib, shaxsiy boylik orttirish yo‘lidagi jinoiy kelishuvdir[3].

Iqtisodiy tafakkur tarixini o‘rgangan olimlarimizdan akademik A.O‘lmasov va M.Sharifxo‘jayevlarning asarlarida bozor munosabatlarida adolat va tartibning buzilishi jamiyat taraqqiyotiga qanday to‘siq bo‘lishi batafsil ko‘rsatib berilgan. Ularning nazariy xulosalariga ko‘ra, ishlab chiqaruvchi o‘z mehnatining natijasi amaldorlar tomonidan nohaq tortib olinishini sezsa, unda mehnat qilishga bo‘lgan qiziqish so‘nadi[4]. Muqimiy o‘z asarida aynan mana shu “iqtisodiy tushkunlik” holatini shunday tasvirlaydi:

“Ikki tanobini qilay o‘n tanob,
Yurtingizi kuydurub aylay xarob[5]”

Ushbu misralar shunchaki do‘q-po‘pisa emas, balki iqtisodiy jihatdan soliq bazasining asossiz oshirilishi orqali xo‘jaliklarni kasodga uchratish tahdididir. Shoir bu orqali amaldorlarning nafs balosiga giriftor bo‘lishi butun bir qishloq iqtisodiyotini vayron qilishi mumkinligini bashorat qilgan.

Adabiyotshunos olimlarimizdan H.Razzoqov va S.Mamajonovlar Muqimiyning hajviy tilidagi nafislik va o‘tkirlikni tahlil qilar ekanlar, shoirning xalq tilidan unumli foydalanganini ta’kidlaydilar[6]. Ularning tadqiqotlarida amaldorlarning dehqonlardan pora olish jarayoni ma’naviy buzilish sifatida baholanadi. Pora berish jarayonini shoir:

“Aqcha qo‘lida iki-uch mo‘ysafid,
Derki: “Bu nazringiz-u, bizlar murid”

misralari orqali bayon etar ekan, bu yerda poraning “nazr” niqobi ostida berilishi jamiyatda huquqiy va axloqiy me’yorlarning naqadar yemirilganini ko‘rsatadi. Iqtisodchi olimlar esa bu holatni jamiyatdagi tranzaksiya xarajatlarining asossiz o‘sishi deb baholaydilar. Shuningdek, Muqimiy zamondoshlari bo‘lmish Furqat, Zavqiy va Komil Xorazmiy kabi ijodkorlarning ham o‘sha davr soliq tizimi va amaldorlar zulmi haqidagi fikrlari bizning sharhimizni boyitadi. Ularning barchasi bir ovozdan yer o‘lchash va soliq yig‘ish jarayonidagi adolatsizliklarni millat fojiasi sifatida ko‘rsatib o‘tganlar. Bu esa *“Tanobchilar”* asarining shunchaki yakka holdagi shikoyat emas, balki butun bir davrning ijtimoiy-iqtisodiy qiyofasini ifodalovchi yirik ilmiy-adabiy xulosa ekanligini isbotlaydi.

Xulosa

Muqimiyning “Tanobchilar” hajviyasi — XIX asr oxiri Turkiston iqtisodiy hayotidagi inqirozlarni fosh etuvchi tahliliy ko‘zgudir. Shoir asar orqali davlat boshqaruvidagi nazoratsizlik va soliq yig‘ishdagi o‘zboshimchalik jamiyat taraqqiyotini jilovlovchi asosiy omil ekanini ko‘rsatib bergan. Olib borilgan tadqiqot asosida quyidagi yakuniy xulosalar shakllantirildi[7]:

- birinchidan, tanobchilar tomonidan yer maydonining sun’iy ravishda oshirib ko‘rsatilishi dehqonlarning takroriy mehnat qilish rag‘batini so‘ndirgan va agrar tarmoqda iqtisodiy turg‘unlikni keltirib chiqargan;
- ikkinchidan, amaldorlarning o‘zaro jinoiy kelishuvi natijasida shakllangan ta’magirlik tizimi yurt boyligining adolatsiz qayta taqsimlanishiga va ishlab chiqaruvchi qatlamning qashshoqlashishiga sabab bo‘lgan;
- uchinchidan, huquqiy va iqtisodiy bilimlarning yetishmasligi hamda axborotning yopiqligi amaldorlarga o‘z vakolatlarini shaxsiy manfaat yo‘lida suiiste’mol qilish imkonini bergan.

Shuningdek, Muqimiy fosh etgan ushbu illatlar bugungi kunda yer o`lchash jarayonini raqamlashtirish va soliq ma’murchiligini shaffoflashtirish naqadar hayotiy zarurat ekanini isbotlaydi. Shoir merosi nafaqat adabiy durdona, balki adolatli iqtisodiy tizim barpo etishda hamisha dolzarb bo‘lgan ma’naviy darslikdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Karimov, G‘ulom. Muqimiy: Hayoti va ijodi. – Toshkent: Fan nashriyoti, 1970. – 245-260-betlar (Shoir ijodidagi ijtimoiy-iqtisodiy realizm tahlili).
2. Bartold, V. V. Turkistonning sug‘orilish tarixi (Tarixiy asarlar to‘plami). – Toshkent: O‘zbekiston nashriyoti, 1994. – 88-95-betlar (XIX asr oxiridagi yer va soliq islohotlari haqida).
3. G‘ulomov, P. Turkiston agrar munosabatlari tarixi (O‘quv qo‘llanma). – Toshkent: Universitet, 2002. – 54-bet.
4. O‘lmasov, A., Sharifxo‘jayev, M. Iqtisodiyot nazariyasi (Darslik). – Toshkent: Mehnat nashriyoti, 1995. – 112-120-betlar (Soliq tizimi va uning ijtimoiy adolat tamoyillari).
5. Muqimiy, Muhammad Aminxo‘ja. Asarlar to‘plami (Ikki jildlik). Birinchi jild: She’rlar, hajviyalar. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1974. – 128-132-betlar (“Tanobchilar” hajviyasi).
6. Razzoqov, H. Muqimiy va Furqat davri adabiyoti. – Toshkent: O‘qituvchi, 1990. – 142-bet.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. “Soliq ma’murchiligini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”